


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 2 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMOEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 2



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-2>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. **Djumanova Dilbar Raximovna, Bakiyeva Gulandom Xisomovna, Yuvasheva Shoiraxamamadovna**
MAQOLLARNING GENDERLIK: RUS VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR SEMANTIKASI.....6
2. **Xajiyeva Difuza Adambayevna**
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI: BAHOR, TOG' VA TUN POETIK SEMANTIKASI.....12
3. **Эргашева Дилфуза Камиловна**
ЦЕННОСТНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ.....17
4. **Grigoryeva Mariya Vitalyevna**
RUS VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA XRONOTOP (FAZOVIY KONFIGURATSIYA) NING BADIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....21

TARIX

1. **Abdullayeva Laylo**
O'RTA SINFNING SHAKLLANISHI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....25
2. **SHeripov Umarbek Atajanovich**
MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TAHLIL.....30
3. **Kamolova Habiba Muhammadiyevna**
AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT....34
4. **Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**
1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI (YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR).....38
5. **Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna**
V–XI ASRLARDA JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA AHOLI TURAR-JOYLARINING MADANIY-XO'JALIK RIVOJI VA IQTISODIY-ETNOMADANIY MUNOSABATLAR (XORAZM ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA).....43
6. **Jumaniyazova Intizor To'likinova**
MAMLAKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.....48
7. **Alimova G'unchaxon Baxodirovna**
ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI.....52
8. **Г.А. Дадамирзаева**
ЎЗБЕКЎСТОНДА ХУНАРМАНДЧИЛИК КООПЕРАЦИЯСИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ.....56
9. **Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li**
TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI.....63
10. **Matkarimova Intizor Atabayevna**
AHOLINI RO'YXATGA OLIHNING JAHON TAJRIBASI.....69

FALSAFA

1. **Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich, Turobov Bekpulat Nusratullayevich**
E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIIY MEROSI TAHLILI.....76
2. **Bozorov Mustafu Jabborovich**
MIGRATSIYA JARAYONINING GENEZISI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....82

IQTISOD

Matkarimova Intizor Atabayevna

“Ma'mun universiteti” Nodavlat ta'lim muassasasi,

“Buxgalteriya hisobi” kafedrası,

PhD., dotsent, Xiva, O'zbekiston

E-mail: intizor-matkarimova@mail.ru

AHOLINI RO'YXATGA OLISHNING JAHON TAJRIBASI

<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19007666>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy davlatlar tajribalariga ko'ra, aholini ro'yxatga olish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, aholini ro'yxatga olish tarixi, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining davlat dasturlarini ishlab chiqishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan va tahlil etilgan. Shuningdek, dunyo mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishning turli usullari - an'anaviy, onlayn, registrlarga asoslangan va gibridd usullar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Aholini ro'yxatga olish, aholini ro'yxatga olish dasturi, shaxs, yoshi, jinsiy tarkibi, fuqaroligi, milliy tarkibi, mahalla yettiligi, census.stat.uz

Маткаримова Интизор Атабаевна

PhD., доцент кафедры “Бухгалтерский учет”

НОУ “Университет Мамуна” Хива, Узбекистан

E-mail: intizor-matkarimova@mail.ru

МИРОВОЙ ОПЫТ В ОБЛАСТИ ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье на основе опыта зарубежных стран представлены аналитические данные по переписи населения, рассмотрена и проанализирована история проведения переписей населения, а также значение мероприятий по переписи населения и сельского хозяйства в разработке государственных программ. Кроме того, с учётом опыта стран мира обсуждаются различные методы проведения переписи населения в Республике Узбекистан - традиционный, онлайн, основанный на регистрах и гибридные методы.

Ключевые слова. Перепись населения, программа переписи населения, личность, возраст, половозрастной состав, гражданство, национальный состав, махаллинская семья, census.stat.uz

Matkarimova Intizor Atabaevna

PhD., Docent at the department “Accounting”,

Non-state educational institution “Mamun University”

WORLD EXPERIENCE IN THE FIELD OF POPULATION CENSUS

Abstract. Based on the experience of foreign countries, this article presents analytical data on the population census, examines and analyzes the history of population censuses, as well as the importance of population census and agricultural activities in the development of government programs. In addition, taking into account the experience of the countries of the world, various methods of conducting the population census in the Republic of Uzbekistan are being discussed — traditional, online, register-based and hybrid methods.

Key words. Population census, population census program, personality, age, gender and age composition, citizenship, national composition, mahalla seven, census.stat.uz

KIRISH. Aholini ro'yxatga olishda yig'ilgan ma'lumotlar tahlili orqali dunyo nufusining umumiy va keng ko'lamli qiyofasi yaratiladi. Hozirgi kunla aholini ro'yxatga olish ishlari BMT tavsiyalari asosida ko'pgina davlatlarda amalga oshiriladi. Bu borada davlatning asosiy manbai xalq haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Darhaqiqat, yaqindagina O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlisga va ko'p millatli xalqimizga Murojaatnomasida[1]: “ Biz – bugun 38 milliondan ziyod katta xalqmiz. Mashaqqatli va sharaflı mehnatimiz bilan dunyoda hurmat topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil borayotgan, matonatli va g'ururi baland millatmiz. Biz o'zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz. Har yili aholimiz o'rtacha 2 foizga o'smoqda, 1 milliondan ziyod o'g'il-qizlarimiz katta hayotga kirib kelmoqda. Yoshlarimizga qarab, ular erishayotgan yutuqlarni ko'rib, ko'ksimiz tog'dek ko'tariladi, qanday ulkan bunyodkor kuch safimizga qo'shilayotganidan g'ururlanib ketamiz” deb ta'kidlab o'tdilar.

Aholi haqidagi aniq ma'lumotlar resurslardan oqilona foydalanish va to'g'ri taqsimlashga zamin yaratadi. Shu bois, aholi tarkibi, iqtisodiy faolligi va ta'lim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish har bir davlat oldidagi asosiy vazifadir. Jumladan, mamlakatda qancha kishi borligi haqida emas, ya'ni migrantlar qaerdan kelib, qayerga ketayotgani hamda yosh va jins tarkibi kabi ko'pgina ma'lumotlar islohot o'tkazayotgan davlat uchun zarur bo'ladi. Bu borada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, aholini ro'yxatga olish zarurati tug'ildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi O'RQ-611-son Qonuni qabul qilinganligi [2], keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrda “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida”gi PF-173-son Farmoni rasman tasdiqlandi. Ushbu hujjat xalqaro standartlarga asoslangan bo'lib, Yevropa statistika konferensiyasining 2020-yildagi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan [3]. Shuningdek, 2025-yil 7-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi №629-sonli qarori qabul qilindi [4]. Hamda BMT aholini kamida 10 yilda bir marta ro'yxatga olishni tavsiya qiladi. Ushbu ro'yxatga olish milliy siyosatni ishlab chiqish va rejalashtirish hamda mamlakat rivojlanishini kuzatish uchun asosiy axborotlar taqdim etilishini ta'minlaydi. Xususan, bu borada aholining turar joy, uy-ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, tibbiy uskunalari va dori-darmon, ijtimoiy xizmatlar, ish o'rinlariga ehtiyojiga doir ahamiyatga ega axborotni aholi to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlar asosida aniqlash mumkin.

O'zbekistonda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlari 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha o'tkazilib, unda raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi. Bu muddat pandemiya vaqtida to'plangan tajribaga asoslangan bo'lib, dastlabki 17 kun (15-yanvar – 1-fevral) onlayn ro'yxatga olish, keyingi 27 kun esa “mahalla yetiligi” ishtirokida uy-uy yurib amalga oshiriladi. Onlayn bosqichda mobil ilovalar va veb-portallar (census.stat.uz) orqali ro'yxatdan o'tish ta'minlanadi, bu aholining 70–80% qamrovini ta'minlaydi. Bulardan tashqari davlat organlari va

tashkilotlari 2026 yil 15 yanvardan 31 yanvargacha o'z tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarning census.stat.uz portalida ro'yxatdan o'tishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikadagi barcha maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari, shuningdek, davlat nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallarida o'qiyotgan talabalarning ushbu portalda ro'yxatdan o'tishiga ma'sul bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ko'p yillar davomida taniqli olimlar dunyo bo'yicha aholini optimal sonini aniqlashga harakat qilganlar va ular buni aniqlay olmaganlar. Chunki, aholi va resurslarni o'sishi orasidagi bog'liqlik nisbiy va o'zgaruvchan bo'lib hisoblanadi. Ingliz iqtisodchisi T.R.Maltus o'zining "Nufuz qonuni", ya'ni "Aholi nufuz qonuni to'g'risida tajriba" asarida aholi soni tez ko'payib boradi, oziq-ovqat mahsulotlar o'sishi esa orqada qolib ketadi, deb ishontirishga uringan. U aholining ko'payishini cheklovchi muayyan chora-tadbirlar qo'llanilmasa, insoniyat ocharchilikka duch keladi, deb xulosa qiladi. Bunday vaziyatdan chiqishning quyidagi yo'llarini taklif etadi: birinchisi, epidemiyalar, urushlar va kasalliklar natijasida aholining kamayishi va boshqalar, ikkinchi yo'l esa nikohdan voz kechish yoki kech turmush ko'rish, tug'ilishni kamaytirish" deb ta'kidlaydi [5]. Ammo, hozirgi zamon iqtisodchilari uning ijtimoiy siyosatning ahamiyatiga bergan bahosiga qo'shilmaydilar. Ular fikricha, mehnatga yaroqsiz va kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash hozirgi zamonaviy jamiyat iqtisodiy siyosatining zarur qismidir. O'zbekistonlik Nyu-York universiteti professori, taniqli iqtisodchi olim Behzod Hoshimov ijtimoiy tarmoqlarda bergan intervyusida esa "har bir kishi qiymat yaratuvchi (samaradorlik oshishi) mavjudot, ya'ni shuni Maltus hisobga olmagan" deb ta'kidlab o'tgan.

Aholi sonini birinchi marta prognozlashtirish turli mamlakatlarda aholining 2 marta ko'payish davrini aniqlashga qaratilgan. Ingliz iqtisodchisi va "Londonda o'limni kuzatish" asari muallifi D.Graund XVII asr boshida Angliya aholisining 2 marta ko'payish davrini hisoblab, uni 280 yil ekanini aytib o'tgan. Statistika asoschilaridan biri U.Petti esa Angliya aholisining kamroq o'sishini nazarda tutib, bu davrni 360 yil, deb qaragan. Ya'ni, u boshqa mamlakatlarda aholining 2 marta ko'payish davri Angliyadagidan ancha farqlanishini ta'kidlagan. XVII asrning ajoyib matematigi L.Eyler aholining ikki marta ko'payish davri 12,5 yil ekanligini aytgan. Bunday o'sish sur'ati har qanday mamlakat aholisining o'sishidan yuqori bo'lsa-da, Eylerning nazariy fikrlari prognozlash rivoji uchun zarur bo'lib hisoblanadi.

Ingliz iqtisodchisi va statistiki G.King XVII asr o'rtasida U.Petti ishini davom ettirib, prognozlashtirishga boshqacha yondashgan. U o'z prognoziga aholi sonining o'sishi arifmetik progressiya bo'yicha amalga oshishini asos qilib olgan. Shu gipoteza asosida Angliya aholisining 600 yil davomida o'sishi prognozlangan va amoo uning noto'g'ri ekanligini aniqlagan. Unga ko'ra, 1800-yilda Angliya aholisi G.King nazarda tutganga nisbatan 1,5 marta ko'p bo'lgan. Agar avvallari prognozlashtirish, asosan, hozirgi aholi sonini keyingisi bilan solishtirishga asoslangan bo'lsa, hozirgi davrda esa butun dunyoda prognozlashda boshqa nozikroq usullarni qo'llash lozimligi aytilmoqda. Avvaldan ko'ra bilish, barcha aholi soni o'zgarishiga va uning ayrim guruhlar soni o'zgaruviga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishni taqozo qiladi.

Mantiqiy egri chiziq asosida aholi sonini prognozlashtirish haqidagi fikrni XIX asr boshida R.F.Ferxlyuster taklif etgan. XX asr boshlarida amerikalik olimlar L.Rida va Pirla ushbu fikrlarni yanada rivojlantirganlar. Pira Rid nazariyaga asosan, mantiqiy egri chiziqda aholi o'sish sur'ati bilan uning mutlaq soni orasida aloqa o'rnatiladi. Germaniyada esa qiyosiy statistika asoschilari hisoblangan A.L.Shletser (1735-1809-yy.) va A.Niman (1761-1832-yy.) asarlari aholi statistikasining rivojlanishiga turtki bo'lgan. Ularning aholiga doir yondashuvlariga ko'ra, davlat farovonligi aholi soni va ularning iqtisodiy faoliyatining doimiy tarzda o'sishi bilan bevosita bog'liq.

Bulardan tashqari, aholi dinamikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish bo'yicha yondashuvlar "Siyosiy arifmetika" fanining asoschilari hisoblangan U.Petti (1623-1687-yy.), J.Graunt (1620-1674-yy.) va E.Galley (1656-1742-yy.) kabi olimlar asarlarida ham kuzatiladi. Yana bir ingliz olimi U.Petti aholi va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sir nazariyasi rivojlanishiga hissa qo'shgan. U XVII asrning eng yirik nazariyotchi-iqtisodchilaridan biri bo'lgan. U mamlakat aholisini davlatning asosiy boyligi - "inson kapitali", deb hisoblagan [6].

O'zbekistonda ham demografiyaning rivojlanishi o'z tarixiga ega. Tarixchi va aholishunos olimlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Respublikada demografiya fanini rivojlantirishda M.Q.Jo'raxonov hisssasi alohida o'rin tutadi. Keyingi demografik jarayonlar ustida ko'pgina tadqiqotlarga o'zbek olimlaridan I.R.Mullajonov, R.A.Ubaydullaeva, O.B.Otamirzayev, L.P.Maksakova, D.B.Bobojonova, M.B.Bo'riyeva va boshqalar ham hissa qo'shganlar [7, 8, 9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosini iqtisodchi olimlarning adabiyotlari hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning aholi ro'yxatga olish bo'yicha ilmiy yondashuvlari, shuningdek, aholini ro'yxatga olishni samarali o'tkazish bo'yicha xalqaro uslubiyotlar va mezonlar tamoyillar tashkil etadi. Mavzuni o'rganish jarayonida statistik kuzatish, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, ilmiy absrtaksiyalash, statistik rasm va jadvallar usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI. Aholi soni bo'yicha davlatlar ro'yxati 2025-yil 19-dekabr holatiga Hindiston davlati eng boy davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, u aholi soni bo'yicha Xitoy va AQSh davlatlarini ilgarilab ketdi [10]. Bugungi kunda Yer sharida 8,263 mlrd. nafardan ortiq kishi yashamoqda. 2025-yilda shuning qariyb 35 foizi ikkita mamlakat Xitoy va Hindiston hissasiga to'g'ri keladi. Aholisi eng tez o'sayotgan davlatlar Afrika va Yaqin Sharqdagi mamlakatlar (Kongo Demokratik Respublikasi) bo'lib hisoblanadi [11]. Bu yerda aholi soni 2080-yilga qadar ikki baravar ko'payadi. Mamlakat aholi sonisi Hindiston, Xitoy, AQSh, Indoneziya va Pokiston kabi davlatlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi (1-jadval).

1-jadval

2025-yilda aholi soni ko'p bo'lgan dunyodagi davlatlar soni

'rin	Davlat	Aholi soni (2025-yil dekabr holatiga), mln. nafar kishi	Jahon aholisidagi ulushi, % da
	Hindiston	1,464	17,7
	Xitoy	1,415	17,1
	AQSh	345	4,2
	Indoneziya	286	3,5
	Pokiston	255	2,9

Aholini ro'yxatga olish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra, 2010-yilda hisobga olishda ishtirok etgan butunjahon aholini ro'yxati aniqlangan va unda ro'yxatga olish tadbiri amalga oshirilgan (2-jadval).

2-jadval

Aholini ro'yxatga olishning 2010-yilda butunjahon aholini ro'yxatga olish tadbiri

Aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan yil	Afrika	Shimoliy Amerika	Janubiy Amerika	Osiyo	Yevropa	Okeaniya	Jami
2005	1	2	1	6	1	3	14
2006	6	4	2	4	3	8	27
2007	5	1	1	2	-	2	11
2008	7	-	-	3	1	1	12
2009	5	-	-	4	3	3	15
2010	5	14	3	12	5	4	43
2011	4	12	2	6	33	3	60
2012	5	2	5	2	1	1	16
2013	5	1	-	-	1	-	7
2014	6	-	-	2	1	-	9

Jami	49	36	14	41	49	25	214
-------------	-----------	-----------	-----------	-----------	-----------	-----------	------------

Ushbu 2-jadval tahliliga ko'ra, 2024-yilda Afrikada 6 ta, Osiyoda 2 ta va Yevropada 1 ta aholini ro'yxatga olish tajribasi o'tkazilgan.

Mamlakatimizda 2026-yilda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish tadbirlarini tashkil etishda MDH davlatlari, jumladan, Belarus Respublikasi tajribasini o'rganish hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumot tariqasida 2010-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlariga sarflangan xarajatlar qiymati o'rtacha aholi jon boshiga Tojikistonda 1,31 AQSh dollarini, Qirg'izistonda 1,12 AQSh dollarini, Ozarbayjonda 1,03 AQSh dollarini, Moldovada 2,15 AQSh dollarini va Rossiya Federatsiyasida esa 3,81 AQSh dollarini tashkil etgan. Asosiy e'tibor mazkur davlatlarda 2019-yilda bo'lib o'tgan aholini ro'yxatga olishning natijalari hamda jarayonlardagi muammo va kamchiliklarni o'rganishga qaratildi. Bu borada aholini ro'yxatga olish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi, ya'ni raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning qo'llanilish darajasi tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

Aholini ro'yxatga olishdagi xorijiy davlatlar tajribasi

№	Mamlakatlar nomi	O'tkazilgan yil	Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning qo'llanilish darajasi
1	Belarus Respublikasi	4-30-oktabr 2019-yil	Belarus Respublikasi aholini ro'yxatga olishda yangi va kombinatsiyalashgan (aralash) usulni joriy etdi. Bu yangi yondashuv orqali aholining ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash jarayoni ancha soddalashtirildi va samaradorlik oshirildi. Aholi o'z ma'lumotlarini davlat statistika idorasi rasmiy veb-sayti orqali maxsus platformada mustaqil ravishda kiritish imkoniyatiga ega bo'ldi
2	Ozarbayjon Respublikasi	1-10-oktabr 2019-yil	An'anaviy usul sifatida yuzma-yuz so'rov va planshetlardan foydalanilgan, asosiy e'tibor ma'lumotlar to'plashning zamonaviy usullariga qaratilgan va samaradorlikni oshirish maqsad qilingan. Ammo, eng muhimi aholini an'anaviy usullar orqali jalb qilish orqali rejalashtirish uchun aniq demografik ma'lumotlar olganlar. Planshetlardan foydalanilgan, asosiy diqqat e'tibor ma'lumotlar to'plash sifati va jarayonni tashkil qilishga qaratilgan bo'lib, aholi aniq manzarasini olish maqsad qilingan
3	Turkiya Respublikasi	31-dekabr 2021-yil	An'anaviy usuldan voz kechilib, manzilga asoslangan aholi ro'yxati tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali aholi haqida zarur barcha demografik ma'lumotlar davlatning mavjud registrlari va elektron ma'lumotlar bazalaridan olindi
4	Germaniya Respublikasi	15-may 2022-yil	Bu jarayonda aralash yondashuv qo'llanilgan. Ya'ni, onlayn-anketalar, intervyuerlar yuzma-yuz tashriflari va ma'muriy registrlardan olingan ma'lumotlarga tayanish orqali jarayonni innovatsion va aholi uchun kamroq yuk bo'lishiga erishilgan
5	Rossiya Federatsiyasi	15 oktabrdan-14-noyabrgacha 2021-yil	Innovatsiyalar raqamli texnologiyalarni, «Davlat xizmatlari» portali orqali ro'yxatga olish varaqalarini onlayn tarzda mustaqil to'ldirish imkoniyatini o'z ichiga olgan. Ro'yxatga oluvchilar

			qog'oz anketalar o'rniga planshetlardan foydalanganlar. Shuningdek, ro'yxatga olishning ko'p funksiyali markazlarda o'tash mumkin bo'lgan
6	Tojikiston Respublikasi	1-15-oktabr 2020-yil	2020-yilda birinchi marta internet-so'rov va planshetlar orqali ma'lumotlar to'plash kabi innovatsion usullar qo'llanilgan. Shu bilan birga, an'anaviy qog'oz anketalar bilan birga raqamli va qog'oz texnologiyalarini birlashtirib, samaradorlikni oshirish maqsad qilingan
7	O'zbekiston Respublikasi	15 yanvardan 28-fevralgacha 2026-yil (rejalashtirilgan)	O'zbekistonda milliy an'analar va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligida innovatsion yondashuv sifatida "mahalla yettiligi" modeli asosida ish olib borish maqsadga muvofiq. Yangi O'zbekistonning boshqaruv tizimida mahalla ijtimoiy institut va aholini tizimli ravishda qamrab olish va tahlil qilishda muhim darvoza vazifasini o'tamoqda
8	Amerika Qo'shma Shtatlari	1-aprel 2020-yil	Qonunga ko'ra, AQSh aholisi ro'yxatga olishda ishtirok etishlari shart. Kishilar shaxsiy hayotini himoya qilish uchun aholini ro'yxatga olish orqali to'plangan barcha shaxsiy ma'lumotlar 72 yil davomida maxfiy saqlanadi. AQSh aholini ro'yxatga olish byurosi millat xalqi va iqtisodiyoti haqida ma'lumot beradi. Har 10 yilda mamlakat har bir rezidentni ro'yxatga olishni o'tkazadi
9	Xitoy Xalq Respublikasi	1-noyabrdan 10-dekabrgacha 2020-yil	Mobil ilovalar orqali ro'yxatga oluvchilar ma'lumotlarni real vaqt rejimida markaziy serverlarga uzatdi. Aholi uchun onlayn o'z-o'zini ro'yxatdan o'tkazish platformasi ishlab chiqildi. GPS texnologiyalari yordamida ro'yxatga olinmagan hududlar tezkor aniqlab borildi hamda ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy maxfiylik nazorat ostiga olindi

Ushbu 3-jadval tahlilidan kelib chiqib, shuni aytadigan bo'lsak, AQShda aholini ro'yxatga olish har bir shtatdagi hududlar chegaralarini yangilab, hukumatga budjetni rejalashtirishda ma'lum sohalarga ko'proq mablag' ajratish zarurligini tushunishga imkon beradi. Fransiyada aholini ro'yxatga olish har yili va turli hududlarda navbatma-navbat amalga oshiriladi. Germaniyada aholini ro'yxatga olish aholi to'g'risidagi demografik ma'lumotlarni yangilash va kishilarning yashash sharoitlari haqida ko'proq ma'lumot olish maqsadida o'tkaziladi. Yaponiyada aholini ro'yxatga olish 5 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda har bir kishi elektron identifikatsiya orqali hisobga olinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Aholini ro'yhatga olish natijalari bo'yicha shakllanadigan statistik ma'lumotlarni to'plash va ishlab chiqish kompleks dasturining keng qamrovli ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bu ro'yxatga olish aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar, millati to'g'risidagi ma'lumotlar, ma'lumoti to'g'risidagi ma'lumotlar, fuqaroligi to'g'risidagi ma'lumotlar, nikoh holati to'g'risidagi ma'lumotlar, bandligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tillarni bilish to'g'risidagi ma'lumotlar, ijtimoiy demografik xarakteristikasi (jinsi va yoshi) to'g'risidagi ma'lumotlar, migratsiya to'g'risidagi ma'lumotlar, uy-joy sharoiti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda yashash uchun daromad kabi manbalarni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Qolaversa, aholini ro'yxatga olish natijalari milliy barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlarini shakllantirishda, xalqaro reytinglar va indeksni, jumladan, Statistika salohiyati indeksi, Inson barkamolligi indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksi va boshqa shu kabi indeksni hisoblashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Aholini ro'yxatga olish orqali to'plangan ma'lumotlar ijtimoiy himoya, investitsiya, uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, turizm, ta'lim, yo'l qurilishi va infratuzilma kabi barcha yo'nalishda manzilli dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida zarur bo'ladi. Aholini ro'yxatga olish natijalari kelgusida hukumatga ushbu dasturlarni amalga oshirish natijalarini baholash, iqtisodiy prognozlash va demografik siyosatni shakllantirishda qo'l keladi. Bu borada mamlakatimizda aholini ro'yxatga olish jarayonini samarali amalga oshirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish lozim:

- mutasaddi xodimlarni yaqin vaqtlar ichida qo'shni mamlakatlarda amalga oshiriladigan aholini ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etish uchun xorij safariga yuborishni tashkil etish;
- iqtisodchi, tarixchi va aholishunos olimlar tomonidan demografik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ko'pgina tadqiqotlarni olib borish;
- aholini ro'yxatga olishning rivojlangan va tajribali davlatlar mexanizmlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish;
- aholini ro'yxatga olish davrida ularning xorijiy davlatlar bilan ma'lumot almashish chora-tadbirlarini aniq belgilab olish;
- aholi va qishloq xo'jaligini bir vaqtda va integratsiyalashgan holda ro'yhatga olish.

IQTIBOSLAR /CHOCKII/REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'RQ-611-son Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi PF-173-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Vazlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son Qarori
5. Tashmatov Sh.X. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. - T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. - 504 b.
6. Abdullayev Y. Statistika nazariyasi. Darslik. - T.: O'qituvchi, 2002. -592 b.
7. Matkarimova I.A., Egamov B.N. O'zbekiston hududida aholini ro'yhatga olish tarixi va bugun. // Ma'mun science" jurnali, 2023, 1-jild, 2-son. Toshkent, 2023. - 213-219 b. ISSN 2181-0000.DOI, Journal 10.26739/2181-0000.
8. Караханов М.К. Некапиталистическая пут развития и проблемы народа населения. - Т.: Мехнат, 1083. - с. 140.
9. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. - Т.: Фан, 1998. - с. 140.
10. <https://stat.uz>
11. <https://lex.uz>

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].